IJTIMOIY SOHADA IJTIMOIY XODIMNING MAQSAD VAZIFALARI

Qoraboyeva Ruxshona Davronbek qizi
Guliston davlat universiteti talabasi

Ijtimoiy ish - bu odamlar va ijtimoiy guruhlarga qo‘llab-quvvatlash, himoya qilish, tuzatish va ijtimoiy reabilitatsiya qilish orqali shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni yengishda yordam berishga qaratilgan professional faoliyat. U yolg‘iz nafaqaxo‘rlar va nogironlarga yordamni

ham, shuningdek, qiynalgan bolali oilalar, uysizlar, giyohvandlar, aroqxo‘rlar va ruhiy kasallarga yordamni ham o‘z ichiga oladi.

2001-yil 27-iyunda Kopengagenda Ijtimoiy ish maktablari xalqaro assotsiatsiyasi va Xalqaro ijtimoiy ishchilar federatsiyasi tomonidan qabul qilingan ijtimoiy ish ta’rifidan kelib chiqqan holda, “ijtimoiy ishchilarning kasbiy faoliyati jamiyatdagi o‘zgarishlarga, insoniy munosabatlar muammolarini hal qilishga hissa qo‘shadi; jamiyatda funktsional mavjudlik qobiliyatini mustahkamlashga va odamlarning farovonlik darajasini oshirish maqsadida ularni qutqarishga yordam beradi. Inson xulq-atvori va ijtimoiy tizimlar nazariyalaridan foydalangan holda, ijtimoiy ish odamlarning o‘z atrofidagilar bilan hamkorlik qilishga targ‘ib qiladi. Inson huquqlari va ijtimoiy adolat tamoyillari ijtimoiy ishning asosidir”.

Jahon amaliyotida ijtimoiy soha xizmatchilari mahalliy, davlat va federal tashkilotlarda turli xil jabhalarda keng qamrovli faoliyat ko‘rsatib, kishilar o‘rtasida shakllanuvchi turli ijtimoiy muammolarning yechimini topishga va ijtimoiy yordamga muhtoj aholiga kasbiy yordam ko‘rsatishga qaratilgan.

Ijtimoiy muammolar qanday paydo boladi?

Ijtimoiy kasb egalari alohida shaxslar, oilalar, aholi guruhlari, tashkilotlar va birlashmalarni optimal faoliyat yuritishlari uchun to‘sqinlik qiluvchi muammolarni bartaraf etish bo‘yicha faoliyat olib boradilar. Kasbiy ijtimoiy xizmatchilar tomonidan aholiga manzilli yordam ko‘rsatiladi. Aksariyat hollarda ijtimoiy muammolar qatoriga kambag‘allik, oilaviy nizolar, ota-ona va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar, jinoyatchilik, zo‘ravonlik, alkogol yoki narkotik moddalarga ruju qo‘yish, ruhiy zo‘riqish bilan bog‘liq holatlar kiritiladi.

Ko‘pchilikning fikriga ko‘ra, davlatning yordam dasturlarida ishtirok etuvchi ijtimoiy xizmatchilar farovonlik xizmatchilari deya e’tirof etiladi. Bu biroz tor ma’noda ifodalangan tavsif bo‘lib, ijtimoiy xizmatchilar amaliyotda turli xil ishlarni bajarib, keng qamrovli faoliyat doirasiga egadirlar. Ijtimoiy ta’minotning lug‘aviy ma’nosi “ijtimoiy farovonlik” tushunchasini anglatadi.[220]Ijtimoiy xizmatchilarning milliy assotsiatsiyasi (IXMA) mutaxassislari fikricha, ijtimoiy ishning asosiy vazifasi insonlarning farovonligini oshirish va kishilarning hayotiy zarur ehtiyojlarini qondirishdan iborat bo‘lib, bunda e’tibor ijtimoiy adolat mezonlarini ta’minlash, kishilarning ehtiyojlarini to‘laroq qondirilishi, ijtimoiy yordamga muhtoj va qashshoqlikda kun kechiruvchilarning imkoniyat va huquqiy erkinliklarini kengaytirishga qaratiladi.

Ijtimoiy xizmatchining funksiyalariga quyidagilar kiradi:

Tashxislash funksiyasini amalga oshirish ijtimoiy xizmatchining aholini alohida qatlamlari, darajalarining o‘ziga xos xususiyatlari va ularga mikromuhitning yo‘naltirilganligi hamda “ijtimoiy tashxis” qo‘yishida o‘z ifodasini topadi. Istiqbolni belgilash funksiyasi jamiyatdagi barcha ijtimoiy institutlar ijtimoiy ish obyektlariga muayyan ijtimoiy xulq-atvor modelini ishlab chiqishning ta’sirini dasturlash va prognozlash orqali amalga oshadi. Ogohlantiruvchi-profilaktik funksiya salbiy voqeliklarda ijtimoiy-huquqiy, yuridik, psixologik, ijtimoiy-tibbiy, pedagogik va boshqa mexanizmlar orqali ularni oldini olish yoki ogohlantirishga imkon yaratadi. Huquqni muhofaza qilish funksiyasi aholini himoya qilish, yordam ko‘rsatish va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qonun va huquqiy normalardan kompleks ravishda foydalanishni ko‘zda tutadi. Ijtimoiy-pedagogik funksiya yordamida ijtimoiy xizmatchi kishilarning ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olib, ularni turli xil tashkilot va birlashmalarda ishlashga jalb qiladi. Psixologik funksiya shaxsning ijtimoiy moslashuvida, shaxslararo munosabatlarda maslahatlar berishni amalga oshiradi. Ijtimoiy-tibbiy funksiyani amalga oshirish orqali ijtimoiy xizmatchi birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish, to‘g‘ri ovqatlanish, gigiena qoidalarining asoslarini amalga oshiradi. Ijtimoiy-maishiy funksiyani amalga oshirishda ijtimoiy xizmatchi aholining turli qatlamlariga yashash sharoitini yaxshilash, to‘la qonli maishiy turmush sharoitini ta’minlashga kerakli bo‘lgan yordamni ko‘rsatishi zarur.

Kommunikativ funksiya aholining yordamga muhtoj boigan qatlami bilan turli xil ijtimoiy institutlar oitasida axborot almashinuvini va o‘zaro aloqani ta’minlashga qaratilgan. Reklama-targ‘ibot funksiyasi Ijtimoiy ishda insonnmg ijtimoiy himoya qilish g‘oyasini targ‘ibotida ijtimoiy

[220] Social woik and social welfare. P. 27

xizmatlarni reklama qilishdan iborat. Axloqiy-insoniy funksiya ijtimoiy ishga yuqori insoniy maqsadlarga erishish, jamiyatda aholining turli qatlamlari va guruhlarini munosib hayot kechirishini ta'minlash vazifasini yuklaydi.

Tashkiliy funksiyani amalga oshirish ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning faoliyatida, jumladan, yashash joyiga ko'ra ishga jalb etishda namoyon boladi. Ijtimoiy xizmatchilar bajaradigan vazifalariga qarab mediator, kordinator, umumiy menejer, o'qituvchi, tahlilchi, broker, mobilizator, advokat kabilarga ajratiladi. Ular o'z faoliyatida tarlicha boshqaruv qoidalariga amal qiladilar. Masalan, mediator atrof-muhit bilan bog'liq muammolarni hal etishga qaratilgan faoliyat olib boradi, umumiy menejer maxsus loyiha, dastur yoki agentlikning ma'muriy boshqarishiga javob beradi, advokat yordamga muhtoj kishiga huquqlarini himoya qilish uchun ish olib boradi va h.k. Demak, ijtimoiy ish insoniy muammolami yengillashtimvchi faoliyat bolib, u aholining alohida guruhlari, oilalar, tashkilotlar va jamiyat a'zolari o'rtasida vujudga keladi.

Ijtimoiy xizmatchi aholining himoyasiz va ijtimoiy yordamga muhtoj muayyan qatlamini qo'llab-quvvatlash va ularga yordam ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Bunday aholi qatlamiga pensionerlar, yolg'iz keksalar, nogironlar, qochoqlar, sharoiti og'ir oilalardan chiqqan bolalar, yetim bolalar, farzandlikka asrab olingan va ota-onaligidan voz kechilgan bolalar, ishga joylashishda qiyinchilikka uchraganlar, ishlab chiqarishda jarohat olganlar va boshqalar kiradi.

Ijtimoiy ish kasbi egasining maqsadi o'zi shug'ullanayotgan fuqarolarning moddiy-maishiy sharoitini yaxshilash va ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta'minlashdan iborat.

Ijtimoiy ish kasbi egasi aholining ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamlarini aniqlashi, maishiy sharoitlarini kuzatishi, maslahat berishi, suhbadar o'tkazishi, ijtimoiy muammoga aralashuv darajasi va xarakterini aniqlashi, ijtimoiy tuzilma faoliyatini muvofiqlashtirishi, oziq-ovqat, dori-darmon, kundalik talab etiladigan tovarlar xaridini ishlab chiqishi, zarur hollarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatishi, imtiyozlarni belgilanishi va qo'llanilishiga erishishi kerak.

Ijtimoiy ish kasbining egasi ijtimoiy xizmat ko'rsatish va ta'minot markazlarida, ijtimoiy himoya qo'mitalarida, ta'lim muassasalarida, qariyalar va bolalar uylarida, vasiylik va homiylik tashkilotlarida, koloniyalarda, pensiya jamg'armasi filiallarida, ruhiy ko'mak ko'rsatuvchi muassasalarda faoliyat olib borishi mumkin.

Ijtimoiy xizmatchi quyidagi kasbiy ko'nikmalariga ega bo'lishi talab etiladi:

- ijtimoiy munosabatlami tartibga soluvchi huquqiy asoslami, me'yor va nizomlami bilishi;
- fanlar (psixologiya, tibbiyot, ijtimoiy ish, iqtisodiyot va boshqa fanlar) majmuasini bilishi;
- ijtimoiy-gumanitar sohadagi mavjud muammolar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish;
- kasbga yo'naltirish va ishga joyiashtirish masalalarida yordam ko'rsata olish qobiliyatiga ega bo'lish;
- hujjatlar bilan ishlay olishi.

Ijtimoiy xizmatchi yuksak darajadagi insoniylik, rivojlangan ichki hissiyotga ega bo'lish, boshqaning dardiga hamdard bo'la olish, har bir yuz bergan muammoli holatga kirishib keta olish, ijtimoiy yordamning zarur turi bilan shug'ullana olish kabi shaxsiy xislatlarga ega bo'lishi kerak.

Ijtimoiy ish kasbining uslublari - ijtimoiy ishni amalga oshimvchi texnologik, tadqiqot va davolash jarayonlarida foydalaniladigan usullarning yig'indisidir. Ijtimoiy ishda fanlararo uslublar: kuzatish, intervyu, suhbat, bahs-munozara, ishontirish, rag'batlantirish, tarbiyalash, xulq-atvor odatlarini shakllantirish kabilardan keng foydalaniladi.

Ijtimoiy xizmatchining ishi bevosita alohida shaxslar yoki oilalarga qaratilgan bo'lsa, u holda bu jarayon individual uslubiga ega bo'lib, amaliy ish hisoblanadi Guruhlar bilan ijtimoiy ish olib borish (ishchi gurah) uslublariga o'xshash muammolari bo'lgan yoki bajaradigan vazifalari va natijalari bir xil bo'lgan oilalar guruhlarida qo'llaniladi. Masalan, nogiron yoki tarbiyasi og'ir farzandi bo'lgan oilalar guruhi, ishsizlar, qochoqlar va boshqalar guruhlarga birikadi. Jamiyat miqyosida amaliyot olib boruvchi ijtimoiy xizmatchilar umumiy tashkilotchilik texnikasi uslublaridan foydalanadilar. Umumjamiyat miqyosida ijtimoiy ish olib borish uslublariga ijtimoiy tashxislash, ijtimoiy prognozlash, mikroijtimoiy muhitni ijtimoiy rejalashtirish, hududiy o'z-o'zini boshqarish tizimini rivojlantirish, jamiyatdagi amaliy faoliyat kabilar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minotga kirish. Vaxabov A Toshkent “ Iqtisod moliya” 2018
2. Uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish xizmati faoliyatini tashkil etish metodik qo‘llanmasi/ M. Karmanyan, M. Xasanbaev, M. Aminov. T.: Baktria press, 2014.
3. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti: Darslik/ Q.X. Abduraxmonov tahriri ostida. T.: Iqtisodiyot, 2013. 418 b.
4. Vaxabov A.V., Majidov N.M. Jamg‘arib boriladigan pensiya jamg‘armasining O‘zbekistonda investitsiya siyosatini amalga oshirishdagi roli: Monografiya. T.: Universitet, 2017. 128 b.
5. Vaxabov A.V. Qishloq aholisini turinush darajasini oshirishda bank tizimining o‘mi / “Qishloq taraqqiyoti va aholi turmush darajasini oshirishda bankmoliya tizimining o‘mi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.: Moliya, 2009. B. 15-23.
6. Vaxabov A.V. Raxmonov Sh.I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining pensiya tizimini isloh etishga ta’siri / “Ijtimoiy hamkorlik – iqtisodiy munosabatlami erkinlashtirish omili” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Asosiy qism. T., 2014. B. 20-31.
7. Vaxabov A.V. Xajibakiev Sh.X. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mehnat bozori holati va aholi bandligini oshirishning ustuvor
yo‘nalishlari / “Iqtisodiyotni modemizatsiyalash sharoitida mehnat resurslaridan samarali foydalanish va aholi bandligini oshirish yo‘llari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. I qism. T., 2015. B. 3-14.
8. Vaxabov A.V. 0 ‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida pensiya tizimini modemizatsiyalash istiqbollari / “Pensiya ta’minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. T.: Universitet, 2014. B. 28-38.